

JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA LINGVOPOETIK TAHLIL OMILLARI: MASALA TARIXI VA ZAMONAVIY HOLATI

A. Abdullayev ¹

Annotatsiya:

Har qanday matnga nisbatan, lingvostilistik tahlil ikki sathni qamraydi: semantik va metasemiotik. Semantik sathda lisoniy-til birliklari (soʻz, soʻz birikmasi, sintaktik konstruksiyalar) qanday qoʻllanilsa shu tarzda, toʻgʻri, oʻz maʼnosida talqin etiladi. Ushbu maqolada jahon tilshunosligida lingvopoetik tahlil omillari va ularning dolzarbligi xususida maʼlumotlar keltiriladi.

Kalit soʻzlar: adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, lingvopoetik tahlil, tahlil omillari

doi: <https://doi.org/10.2024/8czz4111>

Badiiy matn tilining tahlili jahon va milliy adabiyotshunoslikda amalga oshirilgan koʻplab tadqiqotlarning asosiy muammosi xisoblanadi. Ularda badiiy asar tahlilining koʻplab metod va usullari ishlab chiqilgan, ular orasida asosiylari sifatida lingvistik hamda adabiyotshunoslik yoʻnalishidagi ikki yondoshuv ajralib turadi. Lingvistik tahlil metodi uchun tayanch nuqtasi boʻlib til-lison xizmat qiladi, matn esa umumlisoniy qonuniyatlarni namoyish etilishi nuqtai nazaridan idrok etiladi. Adabiyotshunoslik metodi esa, aksincha, matnni birlamchi, boshlangʻich nuqta sifatida qabul qiladi va til tahlil uchun koʻmakchi material sifatida qoʻllanadi. Shu tariqa, badiiy asar tilini tadqiq etish filologiya fanini tilshunoslik hamda adabiyotshunoslik sohalariga boʻlinishini asoslaydi va oʻz-oʻzidan uslubiyat sohasi ham lingvistik hamda adabiyotshunoslik yoʻnalishlariga ajratiladi. Jahon filologiya fanida alohida, badiiy adabiyot tili toʻgʻrisidagi, fanni shakllantirish gʻoyasi dastlab rus olimlarida paydo boʻlgan. Ilk marta rus lingvisti V.V.Vinogradov lingvopoetikani filologiya fanining alohida sohasi sifatida predmeti va vazifalari haqida fikr yuritadi. Olimning fikriga koʻra, lingvopoetik tadqiqotlarning vazifasi soʻz sanʼati sohasida yaratilgan badiiy asarlarda lisoniy birliklarning estetik vazifalarini oʻrganishdan iborat. Lingvopoetik tahlilning maqsadi u yoki bu lisoniy birlik (soʻz, soʻz birikmasi, grammatik shakl, sintaktik konstruksiya) muallif tomonidan soʻz sanʼati jarayoniga jalb etiladi, u yoki bu til birliklarining oʻziga xos, betakror birikishi muayyan estetik samaradorlikka olib keladi.

XYIII-XIX asrlarda romantizm dastlab badiiy adabiyotga, soʻngra lingvistik falsafaga katta taʼsir koʻrsatgan voqeaga aylandi. Romantizmning badiiy soʻz sanʼatiga taʼsirining bir nechta muhim aspektlarini sanab koʻrsatish mumkin:

-individualizm va hissiyotga berilish: romantik-shoirilar individuallik va emotsional ifodagi katta eʼtibor berishganligini yuqorida taʼkidlangan edi. Uoap asarlarida oʻz kechinmalarining yuksak poetik pafosli tilda ifodalanshga xarakat qitlashgan. Ingliz shoirlaridan Vilgelm Vordstvort, Semuel Teylor Kolrij, Jon Kits kabilar insonning ichki olami va unga xos intimlikni taʼkidlashadi;

¹ Abdullayev Asqar Abduhakimovich, SamDCHTI oʻqituvchisi

- romantiklar tabiat va uning go'zalligidan ilhomlanishadi. abiat ularning nazarida erkinlik va ozodlik ramziga aylanadi, natijada she'riyat insonning tabiat bilan uyg'unligini, garmoniyada bo'la olishini tasvirlash vositasiga aylantiriladi. Misol tariqasida Vordsvort o'zining mashhur "Lines Composition a Few Miles Above Tintern Abbey" kabi asarlarida aynan shunday g'oyani, insonning tabiat qo'yniga jalb etilishini aks ettiradi;

-fantaziya va xayolot: romantiklar o'z ijodlarida fantaziya rolini qadrlab, xayolotga berilishardi. SHE'r muallif o'z orzu va fantaziyasini erkin ifodalashi mumkin bo'lgan joyga aylanardi. Semyuel Teylor Kolrij Uilyam Vordsvort bilan birgalikda yaratishgan "Ballad of the Ancient Mariner" she'rida fantaziyaning yaqqol ta'siri ufurib turadi;

-obrazlar va ramzlardan foydalanish: romantik she'riyat obrazlar va ramziy timsollarga tayanadi. Misol tariqasida, Edgar Allan Poning "Rangpar Hukmdor" asarini yoki Alfred Tennison ijodidagi oqqushlarni ko'rsatish mumkin;

- she'r yaratish estetikasi: romantik she'riyat she' va uning tarkibiy tuzilishiga ham o'zgartirishlar kiritadi. Formal qoidalaridan chekinish va she'rning nisbatan erkin tuzilmasi shoirlarga o'z g'oyalari va kechinmalarini erkin ifodalash imkonini beradi.

Shu tariqa, romantizm ikki asr she'riyatiga katta ta'sir ko'rsatgan yangicha emotsional va individual yondoshuvni olib keldi.

Turli-tuman lisoniy unsurlar so'z san'ati sohasiga aylantirilgach, o'zgarishlarga uchraydi, o'zlaridagi mavjud obektiv estetik ifodalanish imkoniyatlarini namoyon qiladi. Nisbatan xususiy kategoriya sifatida "so'z polifoniyasini" ko'rsatish mumkin. Badiiy asar matnida so'z o'z imkoniyatlarini kengaytirish xususiyatiga ega: u har bir istemolida o'zining bor semantik hamda stilistik-uslubiy imkoniyatlarini lshklra yoki yashirin tarzda ishga solishi mumkin. Badiiy matnda, shu tarzda, so'z qo'shimcha mazmuniy keng ma'nolikka ega bo'lib, global semantik yaxlitlik sifatida namoyon bo'ladi. So'zning bu xossasi matnning badiiylik belgilaridan biri xisoblanadi. Biz yuqoriroqda eslatganimiz, V.YA.Zodornova ishlab chiqqan kategoriyalarni qo'llash, lingvopoetika bilan shug'ullanishgan uning izdoshlari va boshqa olimlar yaratishgan ilmiy tadqiqotlarda davom ettirilmadi. Biroq bu xolatga qaramay, olimning lingvopoetik tahlil masalalarini hal etilishiga qo'shgan muhim hissasini inkor etib bo'lmaydi: u birinchilardan bo'lib lingvopoetik tahlilning maqsadini aniq belgilab berdi va bu badiiy asar matnining tadqiqot metodiga xos kategoriyalar tizimi hamda o'lchamlarini batafsil bayon qildi.

Lingvopoetik tahlil metodining jahon adabiyotidagi falsafiy-metodologik zamirini o'rgansak, bu tahlil metodiga doir tushunchalar apparatini ishlab chiqishda A.A.Lipgart ham ishtirok etganligiga guvoh bo'lamiz. Uning fikriga ko'ra, "lingvopoetika – filologiyaning bir bo'limi bo'lib, uning doirasida badiiy asarda qo'llanilgan uslubiy buyoqdor lisoniy birliklar, matnda muayyan g'oyaviy-badiiy mazzmunni uzatishi va estetik samardorlikka erishishdagi vazifasi hamda qiyosiy ahamiyati masalasi munosabati bilan o'rganiladi". Olim lingvopoetika va lingvostilistika, lingvopoetika va adabiyotshunoslik sohalarining o'zaro munosabatini o'rganar ekan, lingvostilik tahlil kelajakdagi barcha lingvopoetik ishlanmalar uchun asos bo'lishini ta'kidlaydi. A.A.Lipgart tadqiqotining alohida bir bo'limi lingvopoetik tahlilning aniq metodlarini yoritishga bag'ishlanadi. Badiiy asarning lingvopoetik tahlili bu asar matnini tashkil etuvchi lisoniy birliklar jamlanmasi sifatida alohida olingan badiiy usul-priemninch lingvopoetikasini o'rganishdan boshlanishi mumkin. Agar o'rganilayotgan til birliklari chindan ta'sir ko'rsatish vazifasini bajarayotgan bo'lsa, bunday o'rganish etarli darajada samarali bo'ladi. Biz mazkur tadqiqotimizning keyingi boblarida qiyoslaydigan lingvopoetika masalalarining turli millat olimlari tomonidan yaratilgan o'quv adabiyotlaridagi talqinlari atrubitiv so'z birikmalari va boshqa birliklari ko'magida namoyish etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Stepanov G.V. O granitsax lingvisticheskogo i literaturovedcheskoko analiza xudojestvennogo teksta // *Izvestiya AN. Ser. Literatura i yazyk*. 1980. T. 39. № 3. S.195–205
- [2]. Vinogradov V.V. YAzyk xudojestvennogo proizvedeniya // *Voprosy yazykoznaniya*. 1954. №5. S. 29; S.538.
- [3]. Zadornova V.YA. Slovesnoxudojestvennoe proizvedenie na raznyx yazykax kak predmet lingvopoeticheskogo issledovaniya. Avtoref. diss. ... dokt. filol. nauk. M., 1992. S. 19; 49 s.
- [4]. Akhmanova O., Zadornova V. On Linguopoetic Stratification of Literary Text // *Poetica. An International Journal of LinguisticLiterary Studies*. Tokyo, 1977. №7. P. 50–60.